


## 2020-yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.


2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, 25,9 mingdan ortiq faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 15,8 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar jalb qilingan.

### 2020-yil 1-mart holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiy sonining 10,6 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar kichik biznes sub'ektlarini tashkil etadi. 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, ularning ulushi 69,1 % tashkil etdi.

### 2020-yil 1-mart holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %



2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi (39,7 %) yaqin.


Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi (7,5 %)ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi (5,6 %)ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi (3,9 %)ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi (1,9 %)ni tashkil etdi.


**2020-yil 1-mart holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 489,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,4 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda savdo xizmatlariga (31,6 %), transport xizmatlariga (21,3 %), moliyaviy xizmatlarga (15,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga (5,3 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

## 2020-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2019 yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 279,5 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2020 yil yanvar oyi) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 755,3 mlrd. so'mga ko'paydi.

## 2020-yil yanvar-fevral oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning oldingi (yanvar oyi) davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (240,6 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (162,4 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (108,8 mlrd. so'mga) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (27,6 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


**Ma'lumot uchun:** 2019 yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari – 74,2 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar – 57,6 mlrd. so'm, transport xizmatlari – 47,0 mlrd. so'm, ta'lim sohasidagi xizmatlar – 27,0 mlrd. so'mga oshgan.

## 2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mird. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>1489,1</b>	<b>110,4</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	78,2	116,9
moliyaviy xizmatlar	226,3	127,2
transport xizmatlari	317,9	105,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	299,3	105,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	37,4	106,4
savdo xizmatlari	470,3	104,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	47,4	102,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	59,6	152,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	23,6	146,9
ijara xizmatlari	41,9	106,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	54,0	105,2
shaxsiy xizmatlar	52,4	101,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	24,0	114,6
boshqa xizmatlar	56,1	100,5

Eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lim sohasidagi xizmatlari (152,7 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (146,9 %), moliyaviy xizmatlar (127,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (116,9%), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (114,6 %), transport xizmatlari (105,7 %), xizmat turlarida qayd etildi.


## 2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari savdo xizmatlari (104,6 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (102,5 %) va shaxsiy xizmatlar (101,8 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2020-yil yanvar-fevral oylarida uning ulushi (31,6 %)ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (21,3 %), moliyaviy xizmatlar (15,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,3 %) egallaydi.

## 2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




2020-yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari hajmi 470,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 31,6 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 74,2 mlrd. so'mga oshdi.



## Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega.



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.


2020-yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ning ulushi 84,8 % ni tashkil etadi. Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 9,9 % ga yetdi.



Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,3 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

## 2020-yil yanvar-fevral oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %



-  Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
-  Telekommunikatsiya xizmatlari

2020-yil yanvar-fevral oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 78,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oldingi oy(yanvar oyi)ga nisbatan o'sishi 38,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 96,4 % ni tashkil etadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 37,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,5 % ga yetdi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar**

**90,4 %**

**Yashash bo'yicha xizmatlar**

**9,6 %**



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**

**100,0 %**


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 90,4 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 9,6 % ga to'g'ri keladi.

Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 226,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 127,2 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (92,8%) tashkil etadi

## 2020-yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




**2020-yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha  
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Qashqadaryo viloyat</b>	<b>1 489,1</b>	<b>110,4</b>
Qarshi sh.	735,7	108,9
Shahrisabz sh.	44,6	107,3
G'uzor	52,7	113,3
Dehqonobod	37,6	112,2
Qamashi	49,8	108,4
Qarshi	63,1	111,2
Koson	82,3	111,2
Kitob	70,6	105,1
Mirishkor	33,2	116,8
Muborak	48,7	106,4
Nishon	52,3	113,2
Kasbi	32,7	109,0
Chiroqchi	59,7	109,7
Shahrisabz	59,8	106,9
Yakkabog'	66,0	111,8

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (735,7 mlrd. so'm), Koson (82,3 mlrd. so'm), Kitob (70,6 mlrd. so'm), Yakkabog' (66,0 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Mirishkor (33,2 mlrd. so'm), Kasbi (32,7 mlrd. so'm), Dehqonobod (37,6 mlrd. so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.


## 2020-yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Kitob (105,1 %), Muborak (106,4%), Shahrisabz (106,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy salohiyati tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

## 2020-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %



Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (50,9 %), Koson (5,2 %), Kitob (4,5 %), Yakkabog' (4,3 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Kasbi (2,1 %), Dehqonobod (2,2 %), Mirishkor (2,3 %) tumanlari to'g'ri keladi.